

**XALQARO TERRORIZM XALQARO JINOYAT SIFATIDA****Ramazonov Amir Akbarovich***Toshkent davlat yuridik universiteti**“Xususiy huquq” fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada terrorizmning dunyo siyosatiga, moliyaviy inqirozga, qonli to'qnashuvlarga qay darajada ta'sir qilgani, Islom dini bilan niqoblangan terrorizmdan keyin jahon siyosatida islomofobiyaning kuchayishiga olib kelganligi tasvirlangan. Maqolada qabul qilingan terrorizmga qarshi paktlar, deklaratsiyalar ko'lami, sakkiz sivilizatsiyaning terrorizmga qarshi kurashdagi harakatlari yoritilgan. Terrorizm bilan bog'liq diniy ekstrimizm, shovinizm, fashizm, natsizm, millatchilik, irqchilik va islomofobiyaning ahamiyati harakatning "misli ko'rilmagan qulashi" bilan bog'liq holda tushuntirildi. Bugungi kunda zamonaviy terrorizmning namoyon bo'lishi maqolada batafsil yoritilgan. Ushbu maqola butunjahon qarshi kurashayotgan ushbu betartiblikni cheklash haqidagi nazariyalarini ifodalaydi. Dunyoda qamrab olingan terrorizm doirasi, uning kuchi, qo'rqitish rejimi, asosiy tamoyil va ta'limoti, terror mafkurasi haqidagi ma'lumotlar, paradigmalar va prognozlar yetarlicha yoritilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Terrorizm, diniy ekstrimizm, paradigmalar, zamonaviy bosqinlar, kuch ishltar rejimi, antidemokratiya.*

**INTERNATIONAL TERRORISM AS AN INTERNATIONAL CRIME****Ramazonov Amir Akbarovich***Tashkent State Law University**Student of the faculty of “Private Law*

**Abstract.** *This article describes the extent to which terrorism has affected world politics, the financial crisis, the bloody clashes, leading to the escalation of islamophobia in world politics following Terrorism that has masked Islam. The article covers the adopted anti-terrorism pacts, the scope of the declarations, the actions of eight civilizations in the fight against terrorism. The importance of religious extremism, chauvinism, fascism, natsism, nationalism, racism and islamophobia related to terrorism has been explained in relation to the “unprecedented collapse” of the movement. The types of terrorism today, the manifestations of modern terrorism are covered in detail in the article. This article expresses its theories on the limitation of this chaos that the world is fighting against. The scope of terrorism covered in the world, its power, the regime of intimidation, the basic principle and doctrine, information about the ideology of terror, paradigm and forecasts are sufficiently covered.*

**Keywords.** *Terrorism, religious extremism, paradigms, modern invasions, the regime of the use of force, antidemocracy.*

## LE TERRORISME INTERNATIONAL EN TANT QUE CRIME INTERNATIONAL

**Ramazonov Amir Akbarovich**

Étudiant à l'Université d'État de droit de Tachkent

de la faculté de “Droit Privé”

e-mail: aramazonov39@gmail.com

**Annotation.** *Cet article décrit à quel point le terrorisme a affecté la politique mondiale, la crise financière, les affrontements sanglants, conduisant à l'escalade de l'islamophobie dans la politique mondiale suite au terrorisme qui a masqué l'Islam. L'article couvre les pactes antiterroristes adoptés, la portée des déclarations, les actions de huit civilisations dans la lutte contre le terrorisme. L'importance de l'extrémisme religieux, du chauvinisme, du fascisme, du natsisme, du nationalisme, du racisme et de l'islamophobie liés au terrorisme a été expliquée en relation avec “l'effondrement sans précédent” du mouvement. Les types de terrorisme d'aujourd'hui, les manifestations du terrorisme moderne sont traités en détail dans l'article. Cet article exprime ses théories sur la limitation de ce chaos contre lequel le monde se bat. La portée du terrorisme couvert dans le monde, son pouvoir, le régime d'intimidation, le principe et la doctrine de base, les informations sur l'idéologie de la terreur, les prévisions paradigmatiques de l'ava sont suffisamment couverts.*

**Mots clés.** *Terrorisme, extrémisme religieux, paradigmes, invasions modernes, régime de l'usage de la force, antidémocratie.*

### KIRISH

Urush. Qirg'inbarot. Portlash. Qo'rquv. Insoniyatning hokimiyatga bo'lgan nafsi doimiy urushlar, qirg'inlarga sabab bo'lmoqda. Terror tushunchasi ham tarixda yuz bergan urushlar natijasida paydo bo'ldi. Tinch-totuv yashayotgan xalqqa doim tashqi tomondan xavf-xatar sodir bo'lgan. Aholisi qirilib ketgan mamlakatlar tarixdan izsiz yo'qolgan.

Insoniyat tafakkuri rivojlangani sayin qurol-yarog' ham urush taktika va strategiyalari ham takomillashdi. Dunyo jamiyati yangidan yangi to'qnashuvlarga, terroristik aktlarga guvoh bo'ldi.

Xalqaro hamjamiyat bu tartibsizliklarga barham berish maqsadida bir qator xavfsizlik tashkilotlari, terrorga qarshi hujjatlar, sanksiyalar ishlab chiqdi. Xalqaro sud tashkil etildi. Ammo terror to'xtamadi. Xalqaro jamiyat terrorga qarshi kurash maqsadida provokatsiya ishlarini olib bordi; sanksiyalar qo'lladi; xalqaro qidiruv e'lon qildi; terror rahbarlari qo'lga olindi, so'roq qilindi; terrorizm qisman bo'lsada cheklandi.

Terrorizm Birlashgan Millatlar Tashkilotining har bir sessiyasidagi asosiy mavzuga aylandi. Terrorizm 180 dan ortiq mamlakatda jinoyat hisoblanadi va qonun bilan belgilanadi, kvalifikatsiya qilinmaydigan huquqiy norma hisoblanadi.

Terrorizmning huquqiy ta'riflari orasida umumiy printsiplar turli mamlakatlarda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va oshirish bo'yicha yangi konsensusni ta'minlaydi.

Terrorizm ta'riflar orasida bir nechta ish'ol qilingan mamlakatda bosqinchiga qarshi tinch aholi tomonidan zo'ravonlikdan qonuniy foydalanish imkoniyatini tan olmaydi va shu bilan barcha qarshilik harakatlarini terroristik guruhlar deb belgilaydi. Boshqalar zo'ravonlikni qonuniy va noqonuniy ishlatishni farqlaydilar. Misol sifatida, Rossiya Federatsiyasi o'zining terroristik ro'yxatiga uning xavfsizligiga eng katta tahdid soladigan tashkilotlarni kiritadi. Natijada terrorizm kuchli davlatlar o'rtasida siyosiy o'yinga aylanadi.

### **METODLAR VATAHLILLAR**

**Ushbu maqola quyidagi savollarga javob beradi:**

- Terrorizm qanday vujudga keldi? Undagi bosh mafkura nima?
- Terror girdobi nega kengayib bormoqda?
- Terrorizm natijasida keng jamoatchilikda yuzaga kelgan islomofobiyaning musulmon mamlakatlarga ta'sir doirasi oshmoqdam

• Bugungi kunda terrorizmga qarshi qanday chora ko'rilmogda?

• Insondagi shaxsiy mafkura va g'oyani shakllantirish qanchalik muhim?

Terrorni qo'llash, undan hokimiyatga kelish maqsadida foydalanish 1794-yil Fransiyadagi Yakobin klubining harakatlariga nisbatan ishlatilgan.

Fransiya Milliy Konvensiyasi 1793-yil sentyabrda "**Terror-bu kun tartibi**" deb e'lon qildi. 1793-94-yillar davrida Fransiya boshqaruv rejimi "**La Terreur**" (Terror hukmronligi) deb ataladi. Fransiya inqilobi rahbari Maksimilien Robespierre 1794-yilda "Terror — adolatdan boshqa narsa emas, shiddatli, qattiq, bukilmas"<sup>62</sup>. XIII asrda Fransiyada Jamoat xavfsizligi agentlari qo'mitasi "Terror" deb nomlandi, a'zolar esa, "terrorchilar deya ta'riflandi"<sup>63</sup>.

"Terrorizm" so'zi birinchi marta 1798-yilda ingliz tilidagi lug'atlarda "Tizimli ravishda terrordan siyosat sifatida foydalanish" ma'nosi sifatida qayd etilgan<sup>64</sup>.

Bu so'z etimologiyasi albatta Fransiya inqilobi vakillariga nisbatan kelib chiqqan. Boshqa bir etimologiyaga ko'ra, "terrorizm" fransuz tilidan olingan; lotin tilidan: terror, "katta qo'rquv", "qo'rquv", lotin fe'li bilan bog'liq "terrere" ya'ni "qo'rqitish" ma'nosini beradi. Atama ma'nosi barcha tillarda "qo'rquv", "daxshat"ni anglatadi.

Terrorning ilk ko'rinishlaridanoq o'z mafkurasi va g'oyasiga ega edi. Mukkammal tuzilgan reja terror a'zolarini birlashtirardi. Terror bu o'qlangan qurol. Kichik bir tepki terror o'qini otilib ketishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy davrda terrorizm nodavlat siyosiy faollar tomonidan siyosiy sabablarga ko'ra odam o'ldirishni anglatadi.

<sup>62</sup> [Early History of Terrorism Archived](#) June 3, 2019.

<sup>63</sup> [Terrorism-research.com. Early History of Terrorism](#) June 3, 2019.

<sup>64</sup> Harper

Terror maqsadi uning mafkurasi va motivi bilan bog'liq. Mafkura va motivatsiya terroristik operatsiyalarning maqsadlariga, ayniqsa qurbonlar darajasiga ta'sir qiladi. Terror nishonining kim ekanligi terroristik operatsiyaning ko'lamini bildiradi. Dunyoviy mafkuralar va diniy bo'lmagan maqsadlarga ega guruhlar ko'pincha ma'lum bir siyosiy maqsadga erishish uchun tanlangan va kamsituvchi zo'ravonlik harakatlariga harakat qilishadi. Bu ko'pincha ulardan qurbonlarni maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan minimal miqdorda saqlashni talab qiladi. Bu ham tashkilotga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan norozilikni oldini olish, shuningdek, qonuniy shikoyatlarga ega bo'lgan oqilona guruh ko'rinishini saqlab qolish uchun. Hujumlarini cheklash orqali ular tashqi siyosiy va iqtisodiy yordamga putur yetkazish xavfini kamaytiradi.

Terrorizm bu uzoq vaqtdan beri mavjud to'qnashuv usuli bo'lib, ko'pincha, qo'rquv va daxshatni keltirib chiqarish maqsadida jangovar bo'lmagan, tinch qatlamga qasddan hujum qilish deb ta'riflanadi. Bundan bir asr oldin, yozuvchi Jozef Konrad terrorchi ongining aniq portretini tasvirlab bergan edi. Terrorizm XX asrdanoq Yaqin Sharq, Shimoliy Irlandiya, Ispaniya, Shri-Lanka, Kashmir, Janubiy Afrika va boshqa ko'plab mintaqalardagi nizolarni keltirib chiqaruvchi asosga aylanib ulgurgan edi. Bu Antarktidadan tashqari barcha qit'alarda sodir bo'lgan va deyarli barcha mamlakatlarga ta'sir qilgan edi. Biroq, 2001-yil 11-sentyabr voqealari terrorizmning eng daxshatli fojialaridan biri bo'ldi va bugun XXI asrda terrorizm yanada halokatli tus olib, uni boshqarish g'oyatda murakkablashdi.

Terrorizm endi davlatlar to'qnashuvi ko'rinishida namoyon bo'ldi: Rossiya-Ukraina, Tayvan-Xitoy, Isroil-Falastin, AQSH-Eron urush va to'qnashuvlari bunga misol bo'ladi. Endilikda terrorizm ko'rinishidagi urushni xususiylashtirish boshlanmoqda. Ikki davlat yuqori elita vakillarining o'zaro qarama-qarshi manfaatlarini natijasida ikki davlat to'qnashuvi boshlanmoqda.

Dunyo taraqqiyoti texnologiyani "demokratlashtirmoqda", ya'ni muayyan shaxslar va guruhlar uchun ommaviy qirg'in qurollariga egalik qilish yanda arzonroq va qulayroq bo'lib qoldi. Qayerda bomba va dinamitlar og'ir va qimmat bo'lsa, plastik portlovchi moddalar va raqamli dinamitlar o'sha yerda shunchalik yengil va arzonidir. Samolyotni o'g'irlash xarajatlari ba'zan chipta narxidan biroz qimmatroq bo'ladi.

Bundan tashqari, axborot inqilobining muvaffaqiyati bir vaqtlar mahalliy va milliy politsiya yurisdiksiyalari bilan chegaralangan guruhlariga global miqyosda bo'lish imkonini beruvchi arzon aloqa vositalarini taqdim etdi. O'ttiz yil oldin, bir lahzalik global aloqa juda qimmat turar edi., shuning uchun u hukumatlar, transmilliy korporatsiyalar yoki Rim-katolik cherkovi kabi katta budjetga ega yirik tashkilotlar doirasi bilangina cheklangan bo'lsa, bugunga kelib internet global miqyosdagi aloqani deyarli har bir inson uchun ta'minlab berdi<sup>65</sup>.

<sup>65</sup> For details see Jozeph Nye, *The Paradox of American Power* (New York: Oxford University Press, 2002), chapter 2.

Shuningdek, terrorchilar o'z xabarlarini ommaviy axborot vositalari va internet orqali keng jamoatchilikka tez yetkazish imkoniga ham ega bo'lishdi. Natijada jamiyatda qo'rquv, vahima uyg'otishga erishildi. Qudratli davlatlar, xalqaro tashkilotlarga nisbatan uyushtirilgan terroristik aktlar terrorning kuchini, tashkilotlarning zaifligini keng ommagan namoyish etdi. Buni 11-sentyabr voqealaridan keyin, Usoma Bin Ladenning televizion intervyulari va video lavhalarining keng tarqalishi misolida ham ko'rdik. Terrorizmning yakuniy g'alabasi yumshoq kuchga juda bog'liq. Bu hech bo'lmaganda dushmanning jang qilish irodasini yo'q qilish uchun olomondan qo'llab-quvvatlashni jalb qilishda o'z aksini topdi.

XX asrda terroristik guruhlarining motivatsiyasi o'zgardi. XX asrning o'rtalarida terrorchilar nisbatan aniq belgilangan, natijasi ko'pincha ommaviy qirg'inlarga olib keluvchi siyosiy maqsadlarga ega bo'lishdi. Ular ko'pincha Liviya yoki Suriya kabi davlatlar hukumatlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan va yashirincha nazorat qilingan. Asrning oxiriga kelib, bir qancha dinlar qoshida radikal gurhlar o'sib bordi. Minglab musulmon erkaklar Afg'onistondagi sovet ishg'oliga qarshi kurashiga qo'shildi. U yerda ularning aksar qismi maxsus tayyorgarlikni o'taganlaridan so'ng, jihodning diniy farzligi borasida ekstremal qarashlarga ega bo'lgan tashkilotlarga jalb qilindi. Tarixchi Uolter Lakerning kuzatuvlariga ko'ra, "Odatiy terrorchilarning, xoh so'l qanot, xoh o'ng qanot vakillari yoki millatchi-separatistlar bo'lsin, ulkan halokat muqarrarligi sababli bunday imkoniyatlarni qo'lga kiritishga yo'l qoyilmagan... Shundan beri terrorizm yanada noaniq va shavqatsiz bo'lib kelmoqda"<sup>66</sup>.

XX asrda terrorizm keng avj oldi. Dunyoni qayta bo'lib olish bahonasida boshlangan har ikkala urush terror kuchini, kuch ishlatar rejimining ko'payishiga sabab bo'ldi. Polshadagi nemislar taqdirini o'ylab,, Polshaga hujum boshlagan Germaniya fashistik imperiyasi terror kuchidan foydalandi. Terroristik kuchlar bundan foydalandi va mislsiz qirg'inlar olib bordi. A.Gitlarning yahudiy xalqini deyarli 90%ni qirib yuborishi dunyo hamjamiyatini larzaga soldi va unga qarshi AQSH hujum boshladi.

Ikkinchi Jahon Urushining oqibatlari butun dunyodagi millatchilarning ehtirolari va umidlarini kuchaytirdi va xalqaro tartib va hukumatlarning qonuniyligiga jiddiy zarar yetkazdi.

Urush yakuni katta qarz va zarar bilan tugadi. Barcha mamlakatlar urushdan okeanorti davlat AQSH dan katta qarz bilan chiqdi. Ikki buyuk davlat AQSH hamda Rossiya o'rtasida terroristic siyosiy o'yin "Sovuq urush" boshlandi. Har ikki tomon o'ziga tegishli terrorni qo'llardi.

Ushbu nazariya motivatsiyalari tor siyosiy maqsadlardan cheksiz yoki o'zga dunyoda mukofot va'dalari bilan mustahkamlangan jazo maqsadlariga o'tganda yanada kuchaydi. Kommunizm va fashizmdan farqli o'laroq, islomiy mafkura islom jamoatchiligidan tashqaridagi qatlamni jalb qila olmadi, biroq bu jamoa bir milliarddan

---

<sup>66</sup> Walter Laquer, "Left, Right and Beyond: The Changing Face of Terror," in James Hoge and Gideon Rose, eds., *How Did This Happen?*(New York: PublicAffairs, 2001),p. 74.

ortiq odamni safarbar qilish uchun katta imkoniyatga ega. Tashkilot ham o'zgarib bordi. Masalan, 60 ga yaqin mamlakatda joylashgan erkin hujralardagi minglab odamlardan iborat Al-Qoidaning tarmog'i unga ilgari kuzatilgan har qanday narsadan ancha yuqoriroq nufuzni berdi. Ammo, hatto uning kichik tarmoqlariga kirish o'tmishdagi iearxik kvazi-harbiy tashkilotlarga kirishga qaraganda ancha murakkabroq bo'ladi.

Har ikkala texnologik va mafkuraviy yo'nalish ham terrorizmni boshqarishni yanada qiyinlashtirdi, uning halokatli salohiyatini oshirdi. 11-sentyabr va Al-Qoida faoliyatining misli ko'rilmagan ko'lami bilan hozirgi e'tibor ekstremistlar bilan bog'liq terrorizmga qaratiladi. Ammo, e'tiborimizni diniy sohadagi terrorchilar bilangina cheklash xato bo'ladi, chunki bu texnologiyani demokratlashtirishning kengroq oqibatlari va hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb muammolarga e'tibor bermaslikni anglatadi. Texnologik taraqqiyot buzg'unchi guruh va shaxslar qo'liga o'tmoqda. Bu esa avvallari asosan hukumatlar va armiyalarga tegishli cheklangan qobiliyatlar hisoblanadi. Har bir katta guruh me'yordan chetga chiqadigan va halokatga sabab bo'ladigan a'zolarga ega. Eslatib o'tish lozimki, AQSHda mahalliy hukumatga qarshi 11-sentyabrgacha bo'lgan eng daxshatli terrorchilik harakati aqidaparast Timoti Makvey tomonidan amalga oshirilgan, 1995-yilda Tokio metrosida zarin (organofosfor nerv gazi) chiqargan Aum Sinrikyo sektasining ham aslida Islomga hech qanday aloqasi yo'q edi.


Jamoatchilikda islomofobiyaning avj olishi xalqaro tashkilotlarda yahudiy va xristian diniga mansub anti-islom qatlamning provakatsiyalari natijasida vujudga keldi. Islomofobiyaning asosizligini yuqoridagi hujumni sodir etgan jinoyatchilar biografiyasidan anglash mumkin. Rim-katolik cherkovi hamda dunyoning yetakchi davlatlaridagi siyosiy elita vakillari Islom diniga qarshi terroristik tashkilotlarning teraktlarini ro'kach qilishadi.

Xavf-xatar va o'limi darajasi tobora ortib bormoqda. 1970-yillarda Myunxen olimpiadasida falastinliklarning isroillik sporchilarga uyushtirgan hujumlari yoki butun dunyo e'tiborini tortgan "Qizil brigadalar"ga tajovuz o'nlab odamlarning hayotiga zomin bo'ldi. 1980-yillarda sikk ekstremistlar Air India samolyotini portlatib, 300 dan ortiq odamni o'ldirgan. 2001-yil 11-sentyabrda bir necha ming kishi halok bo'ldi va bular hali ommaviy qirg'in quroli ishlatilmasdan sodir bo'lgan holatlar xolos. Agar biz ushbu buzg'unchi guruhlar keying o'n yil ichida biologik yoki yadroviy materiallarga ega bo'lishini tasavvur qilsak, terrorchilar millionlab odamlarning hayotini yo'q qilishlari aniq bo'lib qoladi.



## MUHOKAMA

### Terrorizmning yirik hodisalariga misollar:



AQSh Davlat departamenti tomonidan "xalqaro terroristik hodisalar, 2001"

- The 1972 yil Myunxen qirg'ini davomida 1972-yil yozgi Olimpiya o'yinlari yilda Myunxen, G'arbiy Germaniya
- 1975-yil dekabr oyida OPEK shtab-kvartirasida garovga olingan Vena, Avstriya
- 1984-yil oktyabr oyida portlash Brayton, Angliya, PIRA tomonidan o'sha paytdagi bosh vazir Margaret Tetcherni o'ldirishdagi muvaffaqiyatsiz, ammo halokatli urinish.
- 1985-yil iyun oyida Kanadadan kelib chiqqan Air India 182 reysini bombardimon qilish;
- Pan am 103 Lockerbie ustidan parvoz vaqtida portlatish, Shotlandiya 21-dekabr , 1988;
- 1980-yillar davomida AQSH tomonidan Nikaragua tinch aholisini o'ldirish;
- 1993-yilgi Jahon savdo markazining portlashi
- 1993-yil Mumbaydagi portlashlar
- 1995-yil sarin gaz hujumlari Tokio, Yaponiya
- Oklaxoma Siti bombasi Timoti Makvey tomonidan 19-aprel 1995-yil
- 1996-yilda "Yuz yillik Olimpiya bog'i"dagi portlash
- 1998-yil 7-avgustda Keniya va Tanzaniyada AQSh elchixonasining portlashlari
- Shimoliy Irlandiyadagi omagh bombardimoni, 15-avgust 1998-yil
- 31-avgust – 22-sentyabr: Rossiyadagi kvartiradagi portlashlar 300 ga yaqin odamni o'ldiradi va Rossiyani ikkinchi Chechen urushiga olib boradi
- 2001-yil 11-sentyabr, Nyu-York va Vashington okruglariga hujumlar
- 2001-yil 13-dekabrda Hindiston parlamentining hujumi
- Fisih qirg'in Netanya, Isroil, 27-mart, 2002-yil
- Rossiyadagi Moskva teatrini qamal qilish va Beslan maktabini qamal qilish
- 2002-yil oktyabr oyida Balidagi portlash
- Madridda 2004-yil 11-martdagi hujumlari
- Londonda 2005-yil 7-iyuldagi portlashlar
- 2005-yil 1-oktyabrda ikkinchi Bali portlashi

- 2006-yil 11-iyul kuni Mumbay poezd portlashlar
- 200-yil 26-noyabrdan 29-noyabrgacha Mumbay hujumlari
- 2011-yil 22-iyulda Norvegiya hujumlari.
- 2013-yil 15-aprel kuni Boston marafoni bombardimon
- 2015-yil 13-noyabr kuni Parij hujumlar
- 2024-yil 22-mart kuni Krokus xollda terroristic hujum, Rossiya

Yuqorida keltirilgan portlashlar, suiqasd rejalari, bombardimonlar eng katta talofot yetkazganlar ro'yxatiga kiritilgan. Terrorning har qanday hujumi, yetkazgan zarari davlat va jamiyat uchun katta yo'qotish hisoblanadi.

Terroristik hujumlarni oldini olish maqsadida dunyo bo'ylab 100 dan ortiq deklaratsiyalar imzolangan.

### NATIJALAR TAHLILI TRANSMILLIY KONVENSIYALAR

- 1963-yil [samolyot bortida sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa ba'zi harakatlar to'g'risidagi Konventsiya](#) (Tokio Konvensiyasi)
- 1970-yil [samolyotlarni noqonuniy olib qo'yishni bostirish to'g'risidagi Konventsiya](#) (Gaaga Konvensiyasi)
- 1971-yil [fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi noqonuniy harakatlarni bostirish to'g'risidagi Konventsiya](#) (sabotaj Konvensiyasi yoki Monreal Konvensiyasi)
- 1973-yil [xalqaro himoyalangan shaxslarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to'g'risidagi Konventsiya](#) (diplomatik agentlar to'g'risidagi Konventsiya)
- 1979-yil garovga olishga [qarshi xalqaro Konventsiya](#) (garovga olinganlar Konvensiyasi)
- 1980-yil yadro materiallarini [jismoniy himoya qilish to'g'risidagi Konventsiya](#) ([yadro materiallari to'g'risidagi Konventsiya](#))
- 1988 yil [xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatadigan aeroportlarda noqonuniy zo'ravonlik harakatlarini bostirish protokoli](#) (aeroport protokoli)
- 1988 yil [dengiz navigatsiyasi xavfsizligiga qarshi noqonuniy harakatlarni bostirish to'g'risidagi Konventsiya](#) (dengiz Konvensiyasi)
- 1988 yil [kontinental shelfda joylashgan sobit platformalarning xavfsizligiga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarni bostirish protokoli](#) (sobit platforma protokoli)
- 1991 yil [aniqlash maqsadida plastik portlovchi moddalarni markalash to'g'risidagi Konventsiya](#) (plastik portlovchi moddalar to'g'risidagi Konventsiya)
- 1997 yil terroristik bombardimonlarni [bostirish bo'yicha xalqaro Konventsiya](#) ([terroristik bombardimon Konvensiyasi](#))
- 1999 yil terrorizmni moliyalashtirishni [bostirish bo'yicha xalqaro Konventsiya](#) ([terrorizmni moliyalashtirish to'g'risidagi Konventsiya](#))
- 2005 yil yadro terrorizmi [aktlarini bostirish bo'yicha xalqaro Konventsiya](#) ([yadro terrorizmi to'g'risidagi Konventsiya](#))



- 2010 yil [xalqaro fuqaro aviatsiyasi bilan bog'liq noqonuniy xatti-harakatlarni bostirish to'g'risidagi Konventsiya](#) (Pekin Konvensiyasi)
- 2010 yil [samolyotlarni noqonuniy olib qo'yishni bostirish to'g'risidagi Konventsiyaga qo'shimcha protokol](#) (Pekin protokoli)
- 16 - xalqaro Konventsiya, [xalqaro terrorizm bo'yicha taklif qilingan keng qamrovli Konventsiya](#) hozirda muzokaralar olib borilmoqda

#### **Xavfsizlik Kengashi Qarorlari**

- [BMT xavfsizlik Kengashi qarori 731](#) (yanvar 21, 1992)
- [BMT xavfsizlik Kengashining 748-sonli qarori](#) (31 yil 1992 mart)
- [BMT xavfsizlik Kengashining 883-sonli qarori](#) (11 yil 1993-noyabr)
- Sentyabr 28, 2001 [Birlashgan Millatlar tashkiloti xavfsizlik Kengashi qarori 1373 Birlashgan Millatlar tashkiloti Xartiyasi bob VII](#) ostida qabul qilingan, qaysi u qonuniy a'zo davlatlar uchun majburiy qiladi. Boshqa qoidalar qatorida, u a'zo davlatlar o'rtasida [razvedka](#) almashinuvi va Qonunchilik islohotlarini ma'qulladi. [Birlashgan Millatlar Tashkilotining xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash qo'mitasini](#) (CTC) davlatning uning qoidalariga muvofiqligini nazorat qilish uchun tashkil etdi. Keyinchalik xuddi shu masala bo'yicha qarorlar qabul qilindi UNSC qarorlari [1390](#), [1456](#), 1535 (CTC ni qayta tuzgan), 1566 va 1624

#### **Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi**

- [Mustaqil davlatlar Hamdo'stligiga A'zo davlatlar o'rtasida terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida shartnoma](#) (Minsk, 1999 yil iyun)

#### **Osiyo**

- [Terrorizmni bostirish bo'yicha SAARC mintaqaviy Konvensiyasi](#) (Katmandu, 1987 yil noyabr)
- Konventsiyaga qo'shimcha protokol, Islomobod, 2004-yil yanvar (30-avgust 2005-yil holatiga ko'ra hali kuchga kirmagan).
- Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha ASEAN Konventsiyasi, Cebu, Filippin , 13-yanvar 2007 (27-May 201-yildan kuchga kirgan, 22-yanvar 2013-yilda ASEANning barcha a'zolari ACCTNI imzoladilar)

#### **Aksilterror qonunchiligi bilan bog'liq inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi**

- [Anna Maroufidou va Shvetsiyaga qarshi](#) – 1981-yil
- [Brogan va boshqalar V. UK](#) - 11209/84; 11234/84; 11266/84;(1988) [IHES](#) 24 (29 noyabr 1988)

### **XULOSALAR**

Yuqorida qayd etilgan konvensiya va protokollar anti-terror hujjatlar bo'lib, yillar davomida takomillashdi. Bu hujjatlar orqali terror cheklandi va bartaraf etildi.

Terror tushunchasi jamiyatda “qo'rquv”ni anglatsada, bugungi kunda yoshlar terror oqimi kirib ketishi ko'paymoqda. Bu holat talabalar, yoshlar o'rtasida ko'proqdir.

Asosiy sabab esa, huquqiy ongning yetishmasligi, mamlakatimiz ichkarisida yuzaga kelgan islom dinini ekstremal talqin qilgan maxfiy hujralar va domlarning ma'ruzalari natijasida yuz bermoqda.

Fuqarolarimizga milliy istiqlol g'oyasi, vatanparvarlik tushunchalari, Islom dinini to'g'ri anglay olish, huquqdan xabardor bo'lishni o'rgatmoq lozim. Vataniga, eliga, millatiga va diniga bo'lgan sadoqat shakllangan insonda bunday yot g'oyalarga qo'shilish juda kam sodir bo'ladi.

Terror mafkurasi va maqsadini o'z shaxsiy manfaati deb hisoblagan inson o'z oilasi, ota-onasi, jamiyat va o'zini sharmandali ahvolga soladi. Fuqarolarimizga din va huquq haqida batafsil ta'lim berishimiz, jamiyatdagi bu munosabatlarga aloqador yot tushunchalarni fuqaroalr ongidan chiqarib tashlashimiz kerak.

Insonda o'ziga, vataniga bo'lgan mas'uliyatni shakllantirish, davlat va jamiyat oldida javobgarlik tushunchasini yaratish uchun yoshlarga bolalikdan ta'lim berish, ulardagi bunday illatga ergashib ketishiga sabab bo'lgan g'oyani, o'zbek xalqiga sadoqat g'oyalari bilan o'zgartirmoq kerak.

Respublikamizda mavjud diniy tashkilotlar orqali maktab, universitet, barcha ta'lim dargohlarida ma'ruzalar o'tkazish va ushbu ma'ruzalarda dunyoviy va diniy tushunchalar, qarama-qarshi g'oyalarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatmoq kerak.

Yoshlarga huquq vakillari tomonidan huquq va majburiyatlarni anglatish talab va tobutdir. Har bir fuqaro o'zida davlat oldidagi burchini tushinib yetishi, uni o'tash vaqtida millatiga, davlatiga sadoqat bilan bajarishi kerak.

#### REFERENCES:

1. Lyal S. Sunga, "Rivojlanayotgan xalqaro Jinoyat huquqi tizimi: kodifikatsiya va amalga oshirishdagi o'zgarishlar" (Brill Publishers, 1997) 191-203 betlar.
2. [Terrorizmga qarshi xalqaro vositalar](#), [Birlashgan Millatlar Tashkiloti](#)
3. Anderson, Sheldon, Mark Allen Peterson va Stenli V. Toops. Xalqaro tadqiqotlar: Global muammolarga Fanlararo yondashuv. Routledge, 2017.
4. Köchler, Hans (ed.). Terrorism and National Liberation. Proceedings of the International Conference on the Question of Terrorism. New York: Peter Lang, 1988.
5. "Yumshoq kuch", Jozef Nay
6. Romero, Paolo. ['No haven for terror in RP'](#), [ABS News](#), March 7, 2007
7. ["The Anti Terrorism Act \(ATA\), 1997"](#). Pakistan's [Federal Investigative Agency](#)'s website. Archived from [the original](#) on 14 February 2012. Retrieved 13 August 2019.
8. Kalhan, Anil; et al. (2006). Colonial Continuities: Human Rights, Antiterrorism, and Security Laws in India. 20 Colum. J. Asian L. 93.
9. ["Safety & Security: Terrorism"](#). *The Department of Justice and Equality, Republic of Ireland*. Retrieved 3 June 2014.

10. ["ETS no. 090 - European Convention on the Suppression of Terrorism"](#). Council of Europe. 27 January 1977. Retrieved 29 August 2008
11. ["Council of Europe Convention on the Prevention of Terrorism \(CETS No. 196\)"](#). Council of Europe. 16 May 2005. [Archived](#) from the original on 7 August 2008. Retrieved 29 August 2008.
12. İSLAMOFOBİA: HEGEMONYA'YI DERİNLEŞTİRME VE BİR HEGEMONYA PROJESİ OLARAK EURO-İSLAM, Ahmet Dag
13. *Wisniewski, J. Jeremy, ed. (2008). [Torture, Terrorism, and the Use of Violence \(also available as Review Journal of Political Philosophy Volume 6, Issue Number 1\)](#). Cambridge Scholars Publishing. p.175. ISBN 978-1-4438-0291-8. [Archived](#) from the original on January 10, 2023. Retrieved September 15, 2017*
14. Ruthven, Malise; Nanji, Azim (April 24, 2017). [Historical Atlas of Islam](#). Harvard University Press
15. ["Terrorism"](#). Encyclopædia Britannica. p. 3. [Archived](#). Retrieved September 8, 2020
16. Eviatar, Daphne (June 13, 2013). ["Is 'Terrorism' a War Crime Triable by Military Commission? Who Knows?"](#). HuffPost. [Archived](#) from the original on October 11, 2017. Retrieved April 29, 2017.